

BIOLOGIYA DARSLARIDA KLASTER METODINING AFZALLIKLARI

Atabayeva Mavjuda Rustamovna
Shomuratova Sevara Bekberganovna
Ro'zmatova Zaynabjon Yuldashevna
Atajanov Otajon Yuldoshevich
(*"Vitaminlar" mavzusi misolida*)
UrDU akademik litseyi o'qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Biologiya fanini o'qitishda klaster metodidan foydalanish orqali tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Innovatsiya, pedagogik texnologiya, klaster metodi, interfaol metod, ta'lim, tanqidiy fikrlash, klasterli topshiriq.*

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida imkoniyat yaratilmoqda. Ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan Klaster ta'lim-tarbiya jarayonini bir butun holatda amalga oshirishda muammolarni yechishda dars jarayonini oqilona tashkil qilishda, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirishda, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llashda amaliy mashqlarni mustaqil bajarishda biror faoliyat yoki muammo o'zaro muloqot, o'zaro bahs-munozarada fikrlashda hamjihatlik bilan masalalarning yechimida o'z samarasini ko'rsatadi. Bu usulning afzalligi shundaki, talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning klaster usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Zamonaviy ta'limning eng muhim talablaridan biri- qisqa muddatda ortiqcha kuch sarflamasdan, ya'ni o'quvchilarning mustaqil izlanishga jalb qilgan holda yuqori natijaga erishish va mamlakat tayanchi bo'lgan yetuk kadrlarni yetkazib berishdan iboratdir. Buning uchun bugun ta'limi eng rivojlangan mamlakatlar andozalariga murojaat qilmoqdamiz, qolaversa ta'limning eng zamonaviy texnologiyalaridan biri bo'lgan "klaster" metodidan foydalanish orqali o'quvchi dunyoqarashi o'sib rivojlanishiga juda katta yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning "Klaster" usulini qo'llash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asosidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish muammosi pedagogika va geografiya o'qitish metodikasi soxasining dolzarb masalasi sanaladi.

Klaster metodini barcha darslarga tadbiiq qilinsa doimo samara berib kelgan, aynan dars jarayonini qiziqarli mazmunga ega bo'lishi undagi metodlarning turli tumanligiga va o'qituvchining shu metodlardan o'z o'rnida foydalana olishiga bog'liq. Quyida biologiya

darsida “Vitaminlar” mavzusini interfaol klaster usulida qoʻllanilgan dars ishlanmasi keltirilgan.

Mavzu: Vitaminlar

Darsning taʼlimiy maqsadi: Oʻquvchilarga vitaminlarning kashf etilishi tarixi, ahamiyati, xillari, avitaminoz, gipovitaminoz, gipervitaminoz kasalliklari haqida bilim berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Oʻquvchilarga ovqatlanish madaniyati, tartibi va ovqat tarkibidagi vitaminlarning yetarli darajada boʻlishi odam salomatligini kafolati ekanini tushuntirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Oʻquvchilarning vitaminlar haqidagi bilimlari, darslik ustida mustaqil ishlash koʻnikmalari, nutq va muloqat madaniyatini rivojlantirish, tez fikrlashga oʻrgatish, xotirani mustahkamlashdan iborat.

Dars shiori: Hayotdagi mavjud muammolarni oʻz bilimimiz bilan yengib, insonlar koʻnglida mehr – muhabbat uygʻotish.

Dars jihozlari: darslik, vitaminlar guruhlar uchraydigan mevalar maketi, mavzuga doir jadvallar, tayyor vitaminlar pereparadi, vitamin yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar tasvirlangan rasmlar tarqatmali materiallar, bilimlar choʻqqisi.

Dars turi: Noananaviy

Dars uslubi: “Har kim har kimga oʻrgatadi”, modifikatsiyalangan maruza.

Dars vaqti: 45 minut.

Dars jixosi: Vitaminli tabletkalar, vitaminga boy mevalar, rasmlar, plakatlar, jadvallar.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism 2 minut.
 2. Oʻtilgan mavzu yuzasidan oʻquvchilar bilimini baholash yangi mavzuni soʻrash . 8 minut.
 3. Yangi mavzuni bayon qilish. 10 minut.
 4. “Har kim har kimga oʻrgatadi ” uslubida oʻquvchilar bilan yangi mavzuni tahlil qilish. 6 minut.
 5. Aqliy hujum va “ bilimlar choʻqqisi ” orqali oʻquvchilarning bilimini sinash . 5 minut.
 6. Tarqatmali materiallardan foydalanish. 5 minut.
 7. Oʻquvchilarni baholash va darsni yakunlash. 5 minut.
 8. Mustaqil taʼlim . 2 minut.
 9. Uyga beriladigan topshiriq. 2 minut.
- Yangi mavzu rejasi:
1. Vitaminlarning kashf etilishi, tarixi.
 2. Vitaminlar nomlanishi va turi.
 3. Organizmda vitaminlar yetishmasligi oqibatida yuzaga keladigan kasalliklar.
 4. Vitaminlarning inson hayotidagi ahamiyati.
- Asosiy oʻquv materialining bayoni.

Vitaminlar organizmning hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan biologik aktiv moddalar . Vitaminlar odam va hayvon organizmidagi fizologik, biokimyoviy jarayonlarning normal kechishini ta'minlaydi.


Rus olimi Lunin 1880 yilda himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasida vitaminlar hayvonlar organizmi uchun juda muhim modda ekanligini birinchi bo'lib isbotladi. Uning xulosasiga ko'ra, ovqat tarkibida oqsillar, yog'lar, uglevodlar, tuzlar va suvdan tashqari alohida moddalar ham bo'ladi, bularzis organizm yashashi mumkin emas deyilgan edi. Keyinchalik bu noma'lum moddalar 1912 yilda K Funk tomonidan vitaminlar deb nomlandi. Vitaminlarning 40 dan ortiq turi bor. Vitaminlar lotin alifbosining bosh harflari bilan belgilanadi. Masalan: A vitamin, S vitamin, D vitamin E vitamin va hakoza. Bundan tashqari vitaminlarning kimyoviy tuzulishi aniqlangandan keyin, ba'zan ularga kimyoviy nom ham beriladi chunonchi tiamin (B vitamin), kalsiferol (D vitamin), askarbat kislata (S vitamin) kabi.

Vitaminlarning suvda va yog'larda erishiga qarab guruppalariga bo'lish qabul qilingan . Yog'da eruvchilarga A,B,D,E,K vitaminlari, suvda eruvchilarga B guruppa K,S,PP vitaminlar bor.


Agar odam organizmida biror vitamin mutloq yo'qolsa avitaminoz, uning miqdori kamaysa, gipovitaminoz, me'yoridan ortib ketsa gipervitaminoz deb ataladi. Bu xolatlarning har qaysisida o'ziga xos xastalik belgilari paydo bo'ladi.

Vitaminlar odam organizmida barcha hayotiy muhim fizologik jarayonlarning normal o'tisida, bolalar va o'smirlarning normal o'sishi va rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun kundalik ovqat bilan vitaminlarga boy mahsulotlarni muntazam ravishda istemol qilish zarur. Bu mahsulotlar bo'lmagan vaqtda, ya'ni qish, erta bahorda dorixonalarda tayyor holda sotiladigan vitamin tabletkalaridan kuniga 1 – 2 tabletka istemol qilish kerak.

Klasterlarni davom qildiring:




Klasterni davom qildiring



Mustaqil ta`lim.

Qo`shimcha adabiyotlardan foydalanib, vitaminlarning ahamiyati, vitamin etishmasligi tufayli yuzaga keladigan kasalliklar belgilari va kasalliklarning oldini olish choralarini o`rganish. Matndagi manbalardan foydalanib Venn diagrammasini to`ldirish.

Vitaminlarni bog`lovchi xususiyatlarni ushbu diagrammada aks ettiring :



Uyga vazifa: Mavzuni o`qib, mavzuga doir test savollar tayyorlash. Matndagi klasterlarni davom qildirish.

Demak dars jarayoniga interfaol metodlarni kiritish orqali darsda kutilgan natijaga erishish mumkin ekan, albatta bunda metodlarni xilma-xilidan tanlash yanada samara beradi. Dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish o`qituvchilar mahoratini oshirish avvalo ularning maxsus kasbiy salohiyatiga bogliq. Innovatsion usullardan foydalanish o`qitiladigan fanlarning soatini inobatga olgan holda ular bilimni

oshirish muammosini ham har hil yo'llar bilan hal qilish zarur. Ammo, klaster metodi mahorati shunday universal komponentlarni o'z ichiga qamrab oladiki, ushbu komponentlardan turli o'quv fanlari pedagoglari foydalana oladilar va bu yo'nalishda ular tez vaqtda yaxshi natijaga erishishlari mumkin. Yana shu ham ma'lumki, o'qituvchilar o'tkazilayotgan mashg'ulotlardan, o'zi qilayotgan ishidan qoniqish hosil qilishi ham juda katta ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR:

- 1 Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-“O'zbekiston”-2016y. B 14
2. Abdiyeva Z.A. Geografiya fanida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish. - Navoiy., 2003. - 108 b.
3. Vahobov H., Zaynutdinov A. Geografiya o'qitish metodikasi. 1-qism Ma'ruzalar matni. -T.: Universitet, 2000.
4. Ro'ziyeva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: TDPU, 2013.
5. Hayitov A., Boymurodov N. Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullaridan foydalanish. -T.: Yangi asr avlodi, 2006.
6. Akhmedov, B. A., Kuchkarov, Sh. F., (2020). CLUSTER METHODS OF LEARNING ENGLISH USING INFORMATION TECHNOLOGY. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(2), 40-43.
7. Akhmedov, B. A. (2021). DEVELOPMENT OF NETWORK SHELL FOR ORGANIZATION OF PROCESSES OF SAFE COMMUNICATION OF DATA IN PEDAGOGICAL INSTITUTIONS. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(3), 113-117.
8. Ахмедов, Б. А., Шайхисламов, Н., Мадалимов, Т., Махмудов, Қ. (2021). Smart технологияси ва ундан таълимда тизимида кластерли фойдаланиш имкониятлари. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(3), 102-112